



APPLICATION AND PRACTICE OF THE THEORY OF STRATEGIES: OPPORTUNITIES FOR INTEGRATING FOREIGN EXPERIENCE INTO UZBEKISTAN'S PRACTICE

Davlatjon Baxtiyorovich Urinboyev

Associate Professor at Kokand State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
Email: davlatjonurinboyev753@gmail.com
Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: economic reforms, New Uzbekistan, strategism theory, strategy, strategic planning of public administration, China, South Korea, “Smart Government”, “e-learning platforms”, “unified identification systems”, industrial clusters, “Reforms aimed at a market economy”, “gradual openness”.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article examines the practical results of experiments on the theory of strategism, the activities of foreign countries, in particular China and the Republic of South Korea, in economic development, public administration, technological progress and international politics in the modern era. At the same time, it is devoted to the analysis of the possibilities of effectively integrating this practice into the conditions of New Uzbekistan and developing the effectiveness of state policy in the socio-economic sphere.

STRATEGEMALAR NAZARIYASIGA DOIR TAJRIBANI QO‘LLANILISHI VA AMALIYOTI: XORIJ TAJRIBASINI O‘ZBEKISTON AMALIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH IMKONIYATLARI

Davlatjaon Baxtiyorovich O‘rinboyev

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori
davlatjonurinboyev753@gmail.com
Qo‘qon, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: iqtisodiy islohotlar, Yangi O‘zbekiston, strategemalar nazariyasi, strategiya, Davlat boshqaruvini strategik rejalashtirish, Xitoy, Janubiy Koreya, “Smart Government”, “e-learning platformlari”, “yagona identifikatsiya tizimlari”, sanoat klasterlari, “Bozor iqtisodiyotiga

Annotasiya: Ushbu maqola strategemalar nazariyasiga doir tajribalarni amaliyotdagi natijasi, xorij mamlakatlari, xususan Xitoy hamda Janubiy Koreya Respublikalarining zamonaviy davrda iqtisodiy rivojlanish, davlat boshqaruvi, texnologik yuksalish va xalqaro siyosatdagi

yo‘naltirilgan islohotlar”, “bosqichma-bosqich ochiqlik”.

faoliyati tadqiq etilgan. Shu bilan birgalikda ushbu amaliyotni Yangi O‘zbekiston sharoitiga samarali integratsiya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy soxada davlat siyosati samaradorligini rivojlantirish imkoniyatlari taxliliga bag‘ishlangan.

ПРИМЕНЕНИЕ И ПРАКТИКА ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕГРАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ПРАКТИКУ УЗБЕКИСТАНА

Давлатжон Бахтиёрович Уринбоев

Доцент Кокандского государственного университета,

Доктор философии (PhD) по философским наукам

Эл. почта: davlatjonurinboyev753@gmail.com

Коканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экономические реформы, Новый Узбекистан, теория стратегизма, стратегия, стратегическое планирование государственного управления, Китай, Южная Корея, «Умное правительство», «платформы электронного обучения», «единые системы идентификации», промышленные кластеры, «Реформы, направленные на рыночную экономику», «постепенная открытость».

Аннотация: В данной статье рассматриваются практические результаты экспериментов по теории стратегизма, деятельность зарубежных стран, в частности Китая и Республики Южная Корея, в сфере экономического развития, государственного управления, научно-технического прогресса и международной политики в современную эпоху. Также анализируются возможности эффективной интеграции этой практики в условия нового Узбекистана и повышения эффективности государственной политики в социально-экономической сфере.

Kirish Strategemalar nazariyasini o‘rganish va uning amaliyotda qo‘llash bugungi kunda iqtisodiyot, siyosat hamda itimoiy hayot sohalarida murakkab raqobat muhitida samarali qarorlar qabul qilish, resurslarni tejamkorlik bilan taqsimlash hamda dinamik tashqi tasirlarga tez munosabatga kirishish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda strategemalar nazariyasi va uning amaliy jihatlarini rivojlantirish davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish, qarorlarni qabul qilish va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekistonda strategemalar nazariyasi va uning amaliy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha so‘nggi yillarda qator izlanishlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, yurtimiz oliy ta‘lim muassasalarida falsafa, siyosatshunoslik, tarix va xalqaro munosabatlar yo‘nalishlarida strategik fikrlash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy konferensiyalar, seminar-treninglar tashkil etilmoqda. Tarjima markazlari tomonidan qadimiy Sharq va G‘arb strategik merosini aks ettiruvchi asarlar, jumladan, Xitoyning “36 strategema”si, Sun Szining “Urush

san'ati" kabi manbalar o'zbek tiliga tarjima qilinib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etilmoqda. Amaliy sohada esa "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida davlat boshqaruvi, diplomatiya, iqtisodiy muzokaralar va investitsiya jarayonlarida strategik yondashuvlarni kuchaytirishga qaratilgan loyihalar joriy qilinmoqda.

Ta'lim tizimida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish orqali jamiyatda mafkuraviy raqobat mhitini mustahkamlash mumkin, bunday yondashuv Yangi O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ta'limdagi innovatsion metodlar va kompetensiyalarni rivojlantirish xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirib, mamlakatning ilmiy-siyosiy nufuzi hamda milliy manfaatlarini ilgari suradi. Ta'lim jarayonida ijodiy tafakkur va tahliliy yondashuvlarni keng joriy etish davlatning innovatsion rivojlanish strategiyasiga xizmat qilib, xalqaro hamkorlikdagi pozitsiyasini yaxshilaydi. Umumiy ta'lim mahsulдорligini oshirish orqali milliy mafkura mustahkamlanadi, bu esa Yangi O'zbekistonning uzoq muddatli milliy xavfsizligi va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Strategemalar nazariyasining amaliyotda qo'llanilishi hozirgi O'zbekiston sharoitida hali nisbatan cheklangan bo'lib, mazkur muammo ilmiy tavsiyalarda sistematik yoritilgan emas. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muammoni turli nuqtai nazardan tahlil etishda muhim asos yaratdi. V. Alimasovning "Strategema – fikrlash va yengish ilmi" nomli ilmiy maqolasi strategemani inson tafakkuridagi kognitiv model sifatida tahlil qiladi, uning g'alaba qozonish va raqib ustidan ustunlikka erishishdagi rolini falsafiy nuqtai nazardan izohlaydi. U. Xadjiyev o'z ilmiy izlanishlarida Xitoy strategemalarining falsafiy va amaliy jihatlarini atroflicha tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, qadimgi Xitoy tafakkurida shakllangan strategemalar tizimi, xususan, Lao-szi daosizmi doirasidagi paradoksal qarashlar, asrlar davomida Sharqona strategik tafakkurning ajralmas qismiga aylangan. B.M. Jo'raqo'ziyev "Mafkuraviy immunitet tushunchasining mazmun-mohiyati" nomli maqolasida strategema tushunchasiga mualliflik qarashlarini ifodalaydi. Ayni paytda, mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'li va islohotlar strategiyasi, uning rivojlanish bosqichlari to'g'risidagi yo'nalishlarda M. Sharifxo'jaev, T. Jo'raev, H. Shayxova, B.To'raev, O'.Abilov, Q. Nazarov, A. Muminov, Sh. Paxrutdinov, F. Musayev, T. Alimardonov kabi olimlar salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borayotganini qayd etish lozim. Shu o'rinda takidlash lozimki strategema nazariyasining xalqaro tajribasi hamda uning turli davlatlardagi milliy xususiyatlari va zamonaviy imkoniyatlariga bag'ishlangan tizimli, fundamental ilmiy tadqiqotlar mamlakatimizda hanuz yetarlicha olib borilmagan, shu bois, strategemalarning jamiyat hayotidagi roli va ularni xayotga samarali tatbiq etishni ta'minlovchi omillar hamda yo'nalishlarni batafsil o'rganish alohida tadqiqot mavzusi sifatida kengroq o'rganishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davrda Yangi O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan sohalarida xorijiy texnologiyalarni jalb qilish va ularni ishlab chiqarishga integratsiyalash ham bu boradagi samaradorlikni oshiradi. Bunda, texnologik transferga parallel tarzda, mahalliy ilmiy-tadqiqot markazlari bilan integratsiyani ta'minlash zarur. Xorij tajribasini joriy etishning samarali usullaridan biri startaplar ekotizimini rivojlantirishdir. Bu bilan O'zbekiston o'z innovatsion salohiyatini oshirishi va global bozorda raqobatbardoshligini kuchaytirishi mumkin.

Kelgusida xorijiy tajribani yanada samarali qo'llash uchun xalqaro ilmiy va texnik hamkorlikni chuqurlashtirish, tajriba almashinuvini tizimlashtirish orqali aniq natijalarga erishish mumkin. Bu jarayonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki muhim o'rin tutadi.

Alohida qayd etish lozim, bugungi kunda O'zbekiston Janubiy Koreya Respublikasining iqtisodiy rivojlanish, raqamli texnologiyalar, kadrlar tayyorlash va davlat boshqaruvi sohalaridagi tajribasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Janubiy Koreya "iqtisodiy mo'jiza"ga erishgan davlat sifatida o'zining qisqa vaqt ichida sanoatlashgan, texnologik jihatdan ilg'or mamlakatga aylanish yo'lida samarali strategiyalar ishlab chiqqan. O'zbekiston ushbu tajribani quyidagi yo'nalishlarda amaliyotga tatbiq etmoqda:

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimi. Janubiy Koreya rivojlanishining asosi sifatida inson kapitaliga katta e'tibor bergan mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakat o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridanoq ta'limga sarmoya kiritib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga urg'u bergandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda bir necha Koreya xalqaro universitetlari faoliyat yuritmoqda (masalan, Toshkent shahridagi Inha universiteti va Koreya xalqaro universiteti). Bu universitetlar koreys ta'lim standartlariga asoslangan dasturlarni taklif etadi, shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, injiniring, menejment va biznes boshqaruvi kabi yo'nalishlarda zamonaviy bilimlarni berib kelmoqda. O'zbekiston – Koreya o'rtasida kadrlar almashinuvi dasturlari, magistratura va doktorantura bosqichlarida grantlar orqali yoshlarning Koreyada tahsil olishi yo'lga qo'yilgan.

Raqamli texnologiyalar va e-hukumat. Janubiy Koreya tajribasi asosida O'zbekistonda "Elektron hukumat" tizimi rivojlantirilmoqda. Bu orqali davlat xizmatlarini raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash va byurokraziyani qisqartirish maqsad qilingan. Shu bilan bira, Koreya Hukumatining KOICA (Korea International Cooperation Agency) tashkiloti bilan hamkorlikda bir qator raqamli infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda. "Smart Government", "e-learning platformalari" va "yagona identifikatsiya tizimlari" shular jumlasidandir..

Texnologik zonalar va sanoat klasterlari. Janubiy Koreyaning texnoparklar modeliga asoslanib, Innovatsion texnoparklar va IT-Parklar tashkil etildi. Koreyaning yirik kompaniyalari,

xususan LG, Samsung, SK kabi korporatsiyalar O'zbekistonda o'z vakolatxonalarini ochgan, qo'shma loyihalarda ishtirok etmoqda. Sog'liqni saqlash va tibbiyot sohasida hamkorlik. Koreya sog'liqni saqlash tizimidagi raqamli va ilg'or tibbiy texnologiyalar tajribasi asosida Toshkentda Koreya tibbiyot markazlari ochilgan bo'lib, diagnostika va davolash xizmatlari ko'rsatilmoqda. Tibbiyot xodimlari uchun Koreyada malaka oshirish va stajirovka dasturlari mavjud.

Alohida ta'kidlash lozim, Sharq davlatlari ichida Xitoy strategiyalarining jahon tajribasidagi o'rni — bu zamonaviy davrda iqtisodiy rivojlanish, davlat boshqaruvi, texnologik yuksalish va xalqaro siyosatda muqobil model sifatida tan olinayotgan fenomen hisoblanadi.

Ma'lumki, Xitoy 1978-yildan boshlab "Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan islohotlar" siyosatini amalga oshirib, dunyodagi eng yirik iqtisodiy kuchlardan biriga aylandi. U "bir davlat — ikki tizim", "davlat tomonidan yo'naltirilgan iqtisodiyot" va "bosqichma-bosqich ochiqlik" kabi tamoyillarga tayangan. Asosiy e'tibor sanoatlashtirish, infratuzilma, qishloq rivoji, eksport va investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan.

BMT va Jahon banki hisobotlariga ko'ra, Xitoy dunyodagi eng tez iqtisodiy o'sishga erishgan mamlakatlardan biridir (40 yilda 800 milliondan ortiq odam qashshoqlikdan chiqarilgan). Xitoy modeli bozor iqtisodiyotini markazlashgan davlat nazorati bilan uyg'unlashtirish, uzoq muddatli rejalashtirish (5 yillik rejalardan 30 yillik strategiyalargacha), rivojlanayotgan davlatlar uchun "avtoritar modernizatsiya" modeli sifatida qaraladi.

Xitoyning 2013 yilda e'lon qilingan "Belt and Road Initiative" (BRI) strategiyasi bugungi kunda 150 dan ortiq davlatni qamrab olgan eng yirik global infratuzilma va iqtisodiy integratsiya loyihasi bo'ib, jahon bozorida "davlat tomonidan yo'naltiriladigan bozor iqtisodiyoti" modelining eng yirik namunasiga aylandi. Shuningdek, Xitoy "Made in China 2025" va "China Standards 2035" kabi tashabbuslar orqali innovatsion iqtisodiyotga o'tish strategiyasini ham amalga oshirmoqda. Bu esa o'z navbatida ko'plab davlatlar uchun yaxshi infratuzilma, texnologik taraqqiyot va tezkor modernizatsiya imkonini beruvchi muqobil yo'l sifatida ko'rilmogda.

O'zbekistonning hozirgi kunda Xitoy tajribasidan foydalanishi — bu ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, texnologik va madaniy hamkorlikning chuqurlashuvi orqali o'z aksini topayotgan strategik yo'nalishdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston dunyo miqyosidagi ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ichki islohotlarga moslashtirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirmogda. Bu borada eng muhim yo'nalishlardan biri — bu Xitoy Xalq Respublikasining taraqqiyot tajribasidan foydalanishdir. Xitoy qisqa davrda industrial va texnologik yuksalishga erishib, bugun global iqtisodiyotning etakchi o'yinchilaridan biriga aylangan. O'zbekiston esa o'z rivojlanish yo'lida aynan Xitoy modelining bir qancha jihatlarini o'rganish va amalda qo'llashga harakat qilmogda.

Xitoy iqtisodiy modelining asosiy ustunlaridan biri – bu sanoatlashtirish va infratuzilma tarmoqlarini jadal rivojlantirishdir. O‘zbekiston aynan shu yo‘nalishda Xitoy tajribasidan faol foydalanmoqda. Xususan, Sanoat va infratuzilma sohasida metro tarmoqlarining kengaytirilishi, quyosh va issiqlik elektr stansiyalarining barpo etilishi O‘zbekistonni energetik mustaqillik sari qadam qo‘ygan holda, yashil energiya sohasida ham ilg‘or davlatlarga yaqinlashish imkonini bermoqda, Qishloq xo‘jaligida esa Xitoy tajribasiga asoslangan issiqxonalar, tomchilatib sug‘orish va intensiv bog‘dorchilik loyihalari orqali suv resurslaridan samarali foydalanish faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi hosildorlikni oshirib, fermer xo‘jaliklarining eksport salohiyatining yanada kuchayishiga zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Xitoy tajribasini o‘z sharoitlariga moslashtirib, strategik sohalarda – sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim va raqamli transformatsiya yo‘nalishlarida samarali qo‘llab kelmoqda. Eng muhimi, bu tajribaning soddalik bilan ko‘chirib olinishi emas, balki uzluksiz moslashtirish va milliy manfaatlarga yo‘naltirilgan shaklda joriy etilayotgani e‘tiborga loyiq.

Ko‘plab mamlakatlar singari O‘zbekiston ham, ushbu tajribani tanlab, uni moslashtirish va milliy kontekstda qo‘llashga intilmoqda. Shuning uchun Xitoy modeli — bu faqat iqtisodiy muvaffaqiyat emas, balki siyosiy pragmatizm, uzoq muddatli rejalashtirish va texnologik suverenitet tamoyillarining uyg‘unlashgan namuna sifatida ham qaraladi.

Xulosa. Strategemalar nazariyasi boshqaruv, siyosat va ijtimoiy strategiyalarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Uning falsafiy va metodologik tamoyillari (ratsional va noratsional komponentlar, sotsiokreativ jarayonlar, kvantifikatsiya) amaliy qarorlarni asoslashda muhim rol o‘ynaydi.

Oliygo‘hlar va mutaxassislik kurslarida strategemalar nazariyasini kiritish — amaliy mashg‘ulotlar, kaze-stadiyalar, simulyatsiyalar va interdisciplinar modullar orqali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Davlat-ta‘lim-iloralar hamkorligi vakillarni amaliy tajribaga yaqinlashtiradi.

Ilm-fan, ta‘lim va davlat boshqaruvi o‘rtasida doimiy muloqot (konsorsiumlar, ekspert kengashlari, amaliy loyihalar) tashkil etish orqali bilim almashinuvi va siyosatga tez tatbiq etish ta‘minlanadi. Raqamli platformalar va ochiq ma‘lumotlar strategik qarorlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ilmiy va ta‘limiy infratuzilmani mustahkamlash, kadrlar malakasini oshirish va davlat siyosatida strategemalar yondoshuvini joriy etish orqali qaror qabul qilish samaradorligi, ijtimoiy konsolidatsiya va milliy identifikatsiyaning mustahkamlanishi kutish mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekistonda strategemalar nazariyasi va uning amaliy jihatlarini ilgari surish ilmiy, ta‘limiy va davlat boshqaruvi sohaslarini integratsiyalash orqali siyosatni samarali, kontekstga mos va barqaror qilish imkonini beradi.

ilmiy tadqiqotlar va ta'lim orqali malakali kadrlar yetishishi, davlat boshqaruvida strategik yondashuvning keng tatbiqi, siyosat samaradorligi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik oshishi.

- Amalga oshirish tartibi: bosqichma-bosqich — pilotlardan milliy miqyosgacha — 3–5 yil ichida sezilarli natija kutish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алимасов В. Стратегема – фикрлаш ва енгиш илми. “Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати”. –Т.: “Ношир”, 2008. 59 б.
2. Xadjiyev, U. Yoshlarda innovatsion tafakkurning shakllanishi va sharqona ma'naviy-axloqiy imperativlar. – Xorazm: Khwarezm travel, 2024. – 120 b.;
3. Jo'raqo'ziyev B.M. Mafkuraviy immunitet tushunchasining mazmun-mohiyati. Scientific progress, 2023. T. 4. №. 2. – P. 410-414.
4. Schelling T.C. The Strategy of Conflict. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – P. 66.;
5. Schmidt V.A. Discursive Institutionalism: The Explanatory Power of Ideas and Discourse. Annual Review of Political Science, Vol. 11, 2008. – P. 303-326.;